

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” fakulteti

“TEXNOLOGIK MASHINALAR VA JIHOZLAR” kafedrası

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA

T U S H I N T I R I S H Y O Z U V I

Diplom loyiha mavzusi: Traversiyani yig‘ish va payvandlash uchastkasini
loyihalash

Bitiruvchi: “TMJ” yo‘nalishi 4-
bosqich 023-12 guruh talabasi:
Turg‘unov Zayniddin Zokirjon
o‘g‘li

Fakultet dekani: L. Olimov

Kafedra mudiri: N. Qobulova

Diplom loyiha rahbari:

M.Igamberdiyev

Maslahatchilar:

Andijon – 2016

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” fakulteti

“**TEXNOLOGIK MASHINALAR VA JIHOZLAR**” kafedrası

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO`YICHA

T O P S H I R I Q

Turg`unov Zayniddin Zokirjon o`g`li

(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Diplom loyihasi mavzusi Traversiyani yig`ish va payvandlash uchastkasini loyihalash

Institut bo'yicha 2015yil «25» dekabrdagi 229-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar: Payvandlab ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha Respublikamizda olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumotlar va internet ma'lumotlari.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

1) Kirish: Payvandlab ishlab chiqarishni tarixi va xozirgi payitdagi mashinasozlikni rivojlantirishdagi roli haqida.

2) Umumiy qism: Traversiyani yig`ish va payvandlash uchastkasini loyihalash konstruksiyasining shakli o'lchamlari, materiali, unga qo'yilgan talablar.

Konstruksiyani payvandlash usulini aniqlash

3) Texnologik qism: Payvand konstruksiyasini yig`ish va payvandlash texnologik jarayoni tuzish. Payvandlash materiallarini tanlash va ularni asoslash. Payvandlash jixozlarini tanlash va asoslash. Payvandlash rejimlarini xisoblash. Payvand konstruksiyasini sifat nazorati. Yig`ish va payvandlash ishlarini normalash

- 4) Konstruktorlik qismi: Konstruksiyani yig`ish va payvandlash moslamasini loyihalash. Konstruksiyani yig`ish va payvandlash uchastkasini loyihalash.
- 5) Iqtisodiy qism: *Traversiyani yig`ish va payvandlash uchastkasini loyihalash yig`ish va payvandlash uchastkasini iqtisodiy ko`rsatkichlarini xisoblash.*
- 6) Mexnat muxofazasi qismi: *Ishlab chiqarish jarayonidagi texnika xabfsizligi, mexnatni muxofazalash bo`yicha ishlar bayoni keltiring*

7) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati: Diplom loyihasi ishida sohaga tegishli bo`lgan hukumatimiz farmon va qarorlari, turli o`quv, ilmiy adabiyotlar, ilmiy-texnik jurnallari, internet saytlaridan foydalaniladi.

Diplom loyihasi chizmalari ro`yhati:

- 1) Konstruksiyaning umumiy ko`rinishi chizmasi.
- 2) Konstruksiya detallari chizmasi.
- 3) Texnologik jarayon chizmasi.
- 4) Konstruksiyani yig`ish va payvandlash uchastka chizmasi

Diplom loyihasi qismlari bo`yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasi qismlari bo`yicha maslahatchilar	Boshla-nish muddati	Tugalla-nish muddati	Imzo	Maslahatchilarning familiyasi
1	Kirish	20.01.2016	03.02.2016		
2	Umumiy qism	04.02.2016	25.02.2016		
3	Texnologik qism	19.05.2016	26.05.2016		
4	Konstruktorlik qismi	28.05.2016	31.05.2016		
5	Chizma qismi	26.05.2016	28.05.2016		
5	Iqtisodiy qism	31.05.2016	02.06.2016		
6	Mehnat muhofazasi	25.05.2016	03.06.2016		

Topshiriq berilgan sana:

Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi:

Diplom loyihasi rahbari:

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi:

Kafedra mudiri:

_____(imzo)

_____(imzo)

_____(imzo)

MUNDARIJA

Kirish.....	2
1.Umumiy qism.....	5
1.1. Traversa konstruksiyasining shakli o‘lchamlari, materiali, unga qo‘yilgan talablar	5
2. Texnologik qism.....	15
2.1. Payvandlash usulini aniqlash.....	15
2.2 Payvandlash rejimlarini xisoblash	18
2.3. Payvandlash jixozlarini tanlash va asoslash	21
2.4. Payvandlash materiallarini tanlash va ularni asoslash	22
2.5. Payvand konstruksiyasini sifat nazorati	28
2.6. Payvand konstruksiyasini yig`ish va payvandlash texnologik jarayoni	33
3 Konstruksiyani yig`ish va payvandlash uchastkasini loyihalash.....	38
4. Iqtisodiy qism.....	41
5. Mehnat muhofazasi qismi	51
Foydalanilgan adabiyotlar.....	66

KIRISH.

Dunyoda shunday kasblar borki, bugungi kunda ishlab chiqarishni biror soxasini ularni mahsuli yoki bevosita ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Payvandchilik ana shunday kasblar sirasiga kiradi. Zero payvandlash mashinasozlik va qurilishda umumiy texnologik jarayonning asosiy bo'g'inlaridan bo'lsa, xujalik faoliyatining boshqa barcha tarmoqlarida undan muayyan darajada foydalanmaslikning iloji yo'q. Payvandchi mehnatini yuksak darajada mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan jarayonga aylantirilishi tufayli uning bu boradagi hissi ortib bormoqda. Tarixdan bizga ma'lumki Payvandlashning eng sodda usullari qadim zamonlardan ishlab chiqarishda qo'llanilib kelingan. Metallarni biriktirish bronza asrida vujudga kelgan. Payvandlash usullari bu vaqt davomida juda sekin rivojlangan, shuning uchun payvandlash usullari va qo'llaniladigan jihozlarning o'zgarishini ko'rish qiyin.

1802-yilda rus olimi akademik V.V. Petrov elektr yoyini ixtiro qiladi va yoy yordamida metallarni qizdirish va suyuqlantirish mumkinligini isbotlaydi. 1882-yilda rus muhandisi N.N. Benardos erimaydigan ko'mir elektrodi bilan elektr yoyli payvandlash usulini ixtiro qildi. 1888-1890 yillarda rus muhandisi N.G. Slavyanov esa eriydigan metall elektrod yordamida payvandlash usulini taklif qildi. Bu usullar hozirgi zamonda metallarni payvandlashda asos bo'lib xizmat qilmoqda

Transport kommunikatsiya mamlakat iqtisodiyotining qudratini belgilovchi asosiy vositalardan biridir. Shu bois keyingi yillarda yurtimizda ushbu soha va tranzit salohiyatini yanada yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilgan, Natijada yo'llarimiz ravon manzilimiz yaqin bo'lib turmushimiz tobora farovonlashmoqda, Bu mazkur tizimning yetakchi tarmog'i bo'lmish temir yo'llarda ham olamshumil o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin, jumladan Respublikamizda yangi temir yo'llar qurish va elektirlashtirish yuk hamda yo'lovchi tashish transportini qayta tiklash va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirildi hozirda Toshkent-

Andijon yo'nalishi bo'yicha temir yo'llarni qurilish ishlarini, Angren - Pop temir yo'llarini elektirlashtishi ishlari jaddal suratlarda davom ettirishga qaratilgan.

Hozirda bu ulkan ishlar ohiriga yetish arafasida turibmiz. Darhaqiqat bugungi kunlarga kelib O'zbekistonimiz boshqa sohalar kabi temir yo'llar tizimida ham o'ziga xos tajribaga ega davlatlardan biriga aylandi. Aniqroq aytganda ilgari mintaqadagi asosiy savdo ishlarida yurtimiz hududidan o'tgan qadimiy Buyuk ipak yo'li katta ahamiyat kasb etgan bo'lsa endilikda uning o'rnini zamonaviy transport kommunikatsiya tizimlari hususan temir yo'llar egallayapti. Bularning barchasi temir yo'llar infratuzilmasini rivojlantirish yangi yo'llarni qurish orqali transport yo'laklarini kengaytirish ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohatlarni samarasidir.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ 22 yildan ortiq davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining tuzilishi-shakllantirish va iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Barqaror rivojlanish, barqarorlik, inovatsion texnologiyalarni joriy etish, va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ korxonalarining iqtisodiy va sanoat rivojlanishining o'sish dinamikasining oshishi O'zbekiston Respublikasining butun iqtisodiyoti va transport sohasining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Temir yo'l transporti mavjud bo'lgandan beri va faoliyati davomida O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Uning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish uchun o'z vaqtida yuk va yo'lovchi tashishni ta'minlash hisoblanadi. Bu boradagi ishlar turli ko'rinishlarda amalga oshirilmoqda va O'zbekiston Respublikasi temir yo'l tarmog'ini o'tkazish va tashish imkoniyatlarini maksimal xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Yuk va yo'lovchi tashish shakllantirish, temir yo'ldan foydalanish harajatlarni optimallashtirish, poezd harakatining xavfsizligini ta'minlash xalqaro shartnomalar doirasida xorijiy sheriklar bilan yaqin hamkorlikda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi strategik geografik o'rinni egallashi va mintaqadagi geosiyosiy rivojlantirish markazi ekanligini hisobga olib, asosiy tranzit yo'laklarini qit'amizning Shimoliy va Janubiy Sharq va

G'arbni bog'lovchi O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tgan. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ni rivojlantirishni rejalashtirishda, qo'shimcha o'rganishga va optimallashtirishga muhtoj bo'lgan muammolarni aniqlashda muhim omil hisoblanadi

“Mamlakatimizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda bizning zimmamizda mamlakatimizning havfsizligi va barqarorligini ta'minlash, shu muqaddas zaminimizda hukm surayotgan tinch-osoyshta hayotni saqlash kabi bir-biridan mas'uliyatli va keng ko'lamli bir qator vazifalar borki, yurtimizning, jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi kuni ana shu masalalarni qanchalik muvaffaqiyat bilan hal etishimizga bog'liqdir”. (I.Karimov) “ Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” “O'zbekiston”, 2010)

Binobarin, texnikalar uchun ayrim detallarni ishlab chiqaruvchi ko'pdan ko'p mashinasozlik zavodlari bir-birlari bilan, shuningdek, metal, plastmassa, rezina va hokazolarni yetkazib beruvchi (boshqatarmoq) korxonalari bilan ishlab chiqarish aloqalari bo'lishini, ya'ni kooperativlashishlarini talab qiladi. Ammo bunday ishlab chiqarishni transportsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishda qulay transport magistrallarining mavjudligiga albatta hisobga olinadi

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Traversani yig'ish va payvandlash uchastkasini loyihalash bugungi kunda avtomobillarga ehtiyoj ko'p bo'lgani uchun poezdlar qatnovi samarali yo'lga qo'lgani, eng arzon yuk tasish transport vositasi bo'lgan temir yo'lida xarakatlanuvch poezdlar va piydalarni xarakat xavsizligini ta'minlash maqsadida traversani ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib tokomillashtirib borilmoqda.

1.UMUMIY QISM.

1.1. TRAVERSASI KONSTRUKSIYASI, SHAKLI, O'LCHAMLARI, MATERIALI, UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Pereezdlar to'sish qurilmasi asosan temir yo'l o'tish joylaridan bo'lib transport vositalari temir yo'l transportlariga yo'nalishida halokatni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunga kelib bunday to'sish qurilmalari avtomobil qo'yish joylarida ham keng foydalanilmoqda. Ayniqsa zavod va fabrika omborlar nazorat postlarida keng foydalanilmoqda Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasiga ketadigan detallar:

1. Balka dvuhtavr uzunligi 2175mm 1 dona,
2. Zatsep 1 dona,
3. Planka list 18mm 200x380 o'lchamda 2 dona,
4. Skoba 2 dona,
5. Nakladka 2 dona,
6. Zaglushka list 12mm 170x390 o'lchamda 2 dona

Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini qo'yilgan talablar, uning texnik tavsiflari va konstruksion ahamiyatini e'tiborga olgan holda yig'ish va payvandlash uchastkasini liniya usulida tashkil qilindi. Liniya usulda loyihalashning asosiy yutuqlaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda qulayliklar tug'dirilishi hisoblanadi.

Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini yig'ishga unga qo'yilgan konstruktiv talablardan tashqari bir qator texnologik talablar ham qat'iy talab etiladi. Ushbu qo'yilgan talablar pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini sifatli yig'ilishi, musatahkam chiqishi, shuningdek uzoq muddat samarali xizmat qilishini harakterlaydi. Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini yig'ishga qo'yiladigan texnologik talablarning asosiylari quyidagilardan iborat.

.



Pereezdlar to'sish qurilmasi (UZP)

1.1.1 Moslamalar quyida qayd etilgan bloklardan iborat bo'lishi kerak: -
tusuvchi moslama (UZP)

- transport vositani nazorat qilish va payqalash datchigi;
- SHRU UZP boshqarish shkafi;
- PU UZP moslamali boshqarish pulti;

1.1.2 Moslama quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- datchik yordamida berilgan zonada turli obyektlarni payqash;
- yo'lni kesib o'tadigan joydagi APS ning avtomatik signalizatsiyasini signali bo'yicha ustki qismni ko'tarish va tushirishni avtomatik ravishda boshqarish;
- ustki qismni ko'tarish va tushirishni yarim avtomatik ravishda boshqarish (APS ning va moslamadagi tugmachani qo'yish orqali);
- transport vosita turganida, moslamaning ustki qismini ko'tarilishini blokirovka qilish;
- datchiklar buzilganida ustki qismni ko'tarilishini blokirovka qilish;

- moslama mexanizmi elektr bilan tahminlanmaganda, moslama ustki qismini qo'lda ko'tarish va tushirish;
- ustki qismni band va band etmasligini nazorat qilish;
- to'sib qo'yiladigan yo'lning eni 6m dan 10m gacha bo'lganda ishlash qobiliyati;
- ustki qism tushirilganda turli transport vositalarini harakati;
- temir yo'lni kesib o'tadigan joyga poezd yaqinlashganda, ko'tarma G'OV bruslari tushirilgandan so'ng, APS signali bo'yicha, ustki qismni berkitish holatiga o'tish;

Poezd o'tib ketgandan so'ng qurilmaning ustki qismi, ko'tarma G'OV bruslari ko'tarilishidan oldini tushishi kerak.

Moslamaning (UZP) texnik talablari

1.2.1 moslamaning tarkibiga kiruvchi to'sadigan (UZP) moslama, yo'lning o'ng va chap tarafiga o'rnatilishini tahminlaydigan 2-ta o'ng (UZP) va chap (UZP) bajarishga ega bo'lishi kerak.

1.2.2 To'sovchi moslamaning va asosiy konstruktiv elementlarni umumiy ko'rinish B-ilovada keltirilganlarga mos bo'lishi kerak.

1.2.3 Transport yuradigan yo'lda to'suvchi moslamani montaj qilish uchun, moslama fundamentining bloki bo'lishi kerak.

1.2.4 Temir yo'lni kesib o'tadigan joyda moslama va asbob uskunalarni sxemasi V ilovada keltirilganlarga mos bo'lishi kerak.

1.2.5. Bajarilgan holatda to'suvchi moslamaning ustki qismi, temir yo'l liniyasini kesib o'tadigan 3 zonaga transport vositalarni kirishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

1.2.6 To'suvchi moslamaning ustki qismi temir yo'l kesib o'tadigan joyda turgan transport vositani temir yo'lni kesib o'tadigan zonadan chiqib ketishiga g'ov bo'lmasligi kerak, chunki avtomobil transportning oldi gildiraklari

ustki qismga kelib urilishidan ustki qismni chetiga ($100^{+50} - 20$) kgf vertikal kuch tahsir etganida ustki qism to'sishi va yo'lni kesib o'tadigan zonadan transport vositani chiqishiga imkon berishi kerak.

1.2.7 Moslamaning ustki qismini yo'l satxiga tushirish uchun majburiy kuch ($100^{450} - 20$)kgf chegarasida bo'lishi kerak.

1.2.8 Moslama, ustki qismning sharnir tayanchi va yuritma valiga nisbatan ustki qismning muvozanatini tahminlaydigan posangi bilan tahminlangan bo'lishi kerak. Posangi ustki qismning muvozanatini rostlaydigan metall plastinalardan iborat bo'lgan to'plam bilan bajarilishi kerak.

1.2.9 Ko'tarib turilgan ustki qism posangining ko'tarilgan holatidagi massasi bilan ushlab turilishi, ushbu holatda tushirilgan ustki qism esa o'z og'irligida ushlab turilishi kerak.

1.2.10 Moslamaning yuritmasi (sotib olinadigan buyum) ustki qismni asosning sharnir tayanchiga nisbatan kamida 30° burchakka burilishini tahminlashi kerak.

1.2.11 Moslama ustki qism (SKS) zona bo'shligini nazorat qilish tizimi bilan tahminlanishi kerak.

1.2.12 Ustki qism (SKS) zona bo'shligini nazorat qilish tizimi quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- nazoratning baza blokidan (keyinchalik - BBK), turi 1.16.da ko'rsatilgan konstruktor hujjatga mos bo'lgan transformatoridan, BBK va transformator TSh 64-15008036-01:2005 asosan tashqi montaj uchun dispecher shkafga o'rnatilishi kerak:

- to'suvchi moslama konstruktsiyasining elementlariga o'rnatilgan, transport vositani payqash uchun DOTS turdagi to'rtta datchikdan (Ushbu texnikaviy shartlarning B-ilovasiga kiradi);

- DOTS datchiklari bilan-boshqariladigan TSh 64-15008036-01:2005 asosan tashqi montaj uchun dispecher shkafga o'rnatilgan bajarish reledan.

1.2.13 Tashqi montaj uchun dispecher shkafi hamda UZP-ning manipulyator - pulti TSh 64-15008036-01:2005 texnikaviy shartlarga mos bo'lishi kerak.

1.2.14 Moslama bloklari elektr birikmalarining montaji. Moslamaning printsiptial elektr sxemasiga asosan bajarilishi kerak. Moslama bloklarini tashqi ulash uchun issitiladigan kabellarning kesimi va markazi konstruktor hujjatning 1.1 b.ga asosan.

1.2.15 Ustki qism, to'sadigan moslamaning to'suvchi elementi, GOST 8568 bo'yicha po'lat listdan tayyorlangan metallga oid kertishli plita kabi bo'lishi kerak. Ko'tarilgan ustki qismning old to'sini ko'tarma FOB kabi signalga oid rangdagi amal bilan bo'yalgan bo'lishi, va oq rangli yorug'lik tarqatuvchi katafotlarga ega bo'lishi kerak.

1.2.16 Moslamaning (datchik bilan) gabarit o'lchamlari quyidagilardan ko'p bo'lmasligi kerak, mm:

- uzunligi - 5600mm
- eni -2500mm
- balandligi 2000mm

1.2.17 Moslamaning (betonli fundamenta bilan) massasi 9000kgdan ko'p bo'lmasligi kerak.

1.2.18 Moslamaning dispecher shkafini nominal ko'chlanish 220V, chastota 50Hz bo'lgan o'zgarovchan tokning bir fazali tarmogidan elektroziklanishi kerak, o'zgarmas tokning nominal chiqish ko'chlanishi 40 V bo'lishi kerak.

1.2.19 Moslamaning manipulyator-pulti o'zgarmas to'kdan oziqlanishini nominal kuchlanishi 24 V bo'lishi kerak.

1.2.20 O'zgaruvchan tokning nominal kuchlanishi 220 V chastotasi 50 bo'lganda moslamaning istehmol qo'vvati 2000V-A dan ko'p bo'lmasligi kerak.

1.2.21 Moslama ustki qismini ko'tarilish vaqti 5 soat dan ko'p bo'lmasligi kerak.

1.2.22 Iul yuzasidan moslama ustki qismining old brusini ko'tarilish balandligi $(0,45 \pm 0,05)t$ bo'lishi kerak.

1.2.23 Moslamaning lok-bo'yoq qoplamalari GOST 9.032 mos bo'lishi kerak. Lok bo'yoq qoplamalari bo'lmagan moslama elementlarining zanglashga qarshi qoplamasi GOST 9.301 mos bo'lishi kerak.

1.2.24 Moslama elektr zanjirlari kabellarini montaji yopiq truboprovodlarda bajarilishi kerak.

1.2.25 Moslama atrof havoning harorati -60°S dan $+60^{\circ}\text{S}$ gacha, 25°S haroratda havoning nisbiy namligi 100% bo'lganida, shuningdek ketma-ket 5 min mobaynida yomg'irning jadalligi (yuqoori ishchi qiymat) GOST 15150 bo'yicha 3 mm/min bo'lganda ishlashga qodir bo'lishi kerak.

1.2.26 Sharnirli tayanch va moslama podshipniklarida konstruhuktor hujjatning 1.1.6ga asosan joylashi bo'lishi kerak.

1.2.27 Moslamaning payvand birikmalarini choklari, GOST 14771 bo'yicha elektr yoy yoki payvand choklarni mustahkamligini tahminlaydigan boshqa payvandlash bilan bajarilishi kerak.

1.1 Transport vositaning payqaydigan DOTS turdagi datchikning texnik talablari.

Konstruktsiyasiga qo'yilgan talablar. Datchik quyidagi konstruktiv elementlardan iborat bo'lishi kerak:

-korpus tashqarisida joylashgan maxsus plastmassadan tayyorlangan, ruporga oid akustik nur tarqatgich bilan ultratovush;

- kojuxdan;

- datchikni o'rnatish balandligini to'rilashni tahminlaydigan ustundan va gorizonatal tekislikda joyini aniqlash.

Konstruktsiya elementlari bilan datchikning umumiy ko'rinish mos bo'lishi kerak.

1.3.1 Datchik, moslama ustki qism bo'shligini nazorat qiluvchi tizimga kirishi kerak.

Datchikning gabarit o'lchamlari quyidagilardan ko'p bo'lmasligi kerak, diametri-140mm:

o'zo'nligi-300mm:

Datchiklarni moslamaga o'rnatish balandligini, 1,46m dan 1,61t gacha bo'lgan chegarada to'grilashga joiz bo'lishi kerak.

1.3.2 Datchiklarning massa-3,0kg ko'p bo'lmasligi kerak.

1.3.3 Datchiklar moslama uchun bo'tlovchi buyum kabi tayyorlanishi kerak.

1.3.4 Datchik, moslamaning ustki qismi bo'shligini nazorat qiluvchi tizimga (SKS) kirishi kerak, bunda:

- Ustki qism bo'shligini nazorat qiluvchi tizim (SKS), keyinchalik qaytgan signallarni vaqtinchalik ishlash yo'li bilan ustki qism zonalarining ultratovush lokatsiyasini tahminlashi kerak. Lokatsiya pezokeramik o'zgartirgich bilan, kaytarilgan signallarni ko'chaytirgichi bilan va moslamaning ustki qismi zonasidagi obektlardan qaytarilgan signallarni ajratib ushbu signallarga vaktincha ishlov berish sxemasi bilan tahminlanishi kerak:

- Datchik lokatorini ishga tushirish, UZP shkafda turgan (BBK) baza nazorat blokidan amalga oshirilishi kerak.

- Datchik platasi, pezometrik o'zgartirgichning uz rezonans chastotasini potentsiometrii yordamida to'grilanadigan, chastotasi (19 ± 1) kHz bo'lishi lozim bo'lgan mikrosxemaning ikkita inventorlaridagi ultratovush generatoridan iborat bo'lishi kerak.

Qaytarilgan signallar kuchaytirgichi va signallarni vaqtinchalik ishlash sxemasi, moslama ustki qism zonasidagi obektlaridan qaytarilgan signallarni ajratishi kerak.

Datchik lokatorining zondlaydigan impulslarning davomiyligi 1,5ms ko'p bo'lmasligi kerak.

Asosiy parametr va tavsiflar.

1.3.7.1 Turi va o'lchami turlicha bo'lgan transport vositaning payqashning maksimal uzoqligi 10 metrdan kam bo'lmasligi kerak. O'zgarmas to'k kuchlanishi bilan oziqlantirish kuchlanish $(40 \pm 4)V$.

1.3.7.2 Datchikda tayyorlanayotganda o'rnatiladigan 0,8t dan 2,5t gacha chegarasida nosezgirlik zonasi bo'lishi kerak.

1.3.7.3 Datchik quyidagi kirish signalda ishlashga qodir bo'lishi kerak:

- amplitudasi 20V dan 40V gacha, davomiyligi 10ms dan 80ms gacha, qaytarish davri 40ms dan 120ms gacha bo'lgan ishga tushirishning to'g'ri bo'rchak impo'lg'slari.

Men loyiha qilayotgan konstrukstiy asosan Cт3 markali po'lat materialdan tayrlanadi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra po'lat uglerodli va legirlangan bo'ladi.

Uglerodli po'lat kam uglerodli (uglerod miqdori, 0,25% gacha), o'rtacha uglerodli (uglerod mikdori 0,25 dan 0,45% gacha) va ko'p uglerodli (uglerod miqdori 0,45 dan 2,14% gacha) bo'ladi.

Tarkibida ugleroddan tashqari legirlovchi elementlar (xrom, nikel, volfram, vanadiy va boshqalar) bo'lgan po'lat legirlangan po'lat deyiladi. Legirlangan po'latlar kam legirlangan (ugleroddan tashqari legirlovchi komponentlar yig'indisi 2,5% dan kam); o'rtacha legirlangan (ugleroddan tashqari legirlovchi komponentlar yig'indisi 2,5 dan 10% gacha), ko'p legirlangan (ugleroddan tashqari legirlovchi komponentlar yig'indisi 10% dan ortiq) bo'ladi.

Mikrostrukturalariga ko'ra po'lat perlitli, martensitli, austentli, ferrit va karbidli sinfga bo'linadi. Ishlab chiqarish usui ko'ra po'latlar qo'yidagilarga bo'linadi:

a) oddiy sifatli (uglerod miqdori 0,45% gacha), qaynaydigan, chala qaynaydigan va qaynamaydigan po'latlar. Qaynaydigan po'latni metallni kremniy yordamida ma'lo'm darajada oksidsizlash yo'li bilan olinadi, bo' po'latda 0,05% gacha kremniy bo'ladi. Qaynamaydigan po'latda 0,12% kremniy bo'lib, o' bir jinsli bo'ladi. Chala qaynaydigan po'latning to'zilishi qaynaydigan va qaynamaydigan po'latlar oraligida bo'lib, o'nda 0,05–0,12% kremniy bo'ladi;

b) sifatli po'lat — uglerodli yoki legirlangan, bularda oltingugurt va fosfor miqdori 0,04% dan ortmasligi kerak;

d) yuqori sifatli po'lat — uglerodli yoki legirlangan, ularda oltingo'go'rt va fosfor miqdori mos ravishda 0,030 va 0,035% dan oshmasligi kerak. Bo'nday po'latlarda metallmas aralashmalar jo'da kam bo'ladi va markasi belgisiga A harfi qo'shib qo'yiladi.

Vazifasiga ko'ra po'latlar konstruksion (mashinasozlik), asbobsozlik, qo'rilish va alohida fizik xossaliga po'latlarga bo'linadi.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra po'lat uglerodli va legirlangan bo'ladi. Uglerodli po'lat kam uglerodli (tarkibida 0,25% o'glerod bo'lgan), o'rta uglerodli (tarkibida 0,25% dan 0,45% gacha) va yo'qori uglerodli (tarkibida 0,45% dan 2,14% gacha) bo'lgan turlarga bo'linadi. Tarkibida ugleroddan tashqari legirlovchi komponentlar (xrom, nikel, volfram, vanadiy va h.) bo'lgan po'lat legirlangan deb ataladi.

Legirlangan po'lat: (tarkibida ugleroddan tashqari, legirlovchi komponentlar 2,5%gacha) past legirlangan; (tarkibida ugleroddan tashqari, legirlovchi komponentlar 2,5% dan 10% gacha bo'lgan) o'rta legirlangan; (tarkibida ugleroddan tashqari, legirlovchi komponentlar 10% dan ko'p bo'lgan) yo'qori legirlangan bo'ladi.

Ishlab chiqarish o'so'li bo'yicha po'lat: a) Oddiy sifatli (tarkibida uglerod 0,45% gacha bo'ladi) qaynovchi, yarim tinch va tinch bo'ladi. Qaynovchi po'latni metalli kremniy bilan to'liqsiz erish bilan olinadi, uning tarkibida 0,05% gacha kremniyga ega bo'ladi. Tinch po'lat bir xil zich ko'rinishga ega bo'ladi va 0,12% dan kam bo'lmagan kremniyga ega bo'ladi. Yarim tinch po'lat qaynovchi va tinch po'latlar orasidagi oraliq holatga ega bo'lib, tarkibida 0,05-0,12% kremniy saqlaydi. b) Sifatli - tarkibida oltingo'go'rt va fosfor 0,04% dan oshmaydigan uglerodli yoki legirlangan bo'ladi; d) Yo'qori sifatli- tarkibida oltingugurt va fosfor 0,030 va 0,035% oshmaydigan uglerodli yoki legirlangan bo'ladi. Bunday po'lat nometall qo'shimchalar bo'yicha yo'qori tozalikka ega bo'ladi va A harfi bilan belgilanadi.

Ishlatiladigan sohasi bo'yicha po'latlar konstruksion (mashinasozlikka mo'ljallangan), asbobsozlik, qo'rilish va maxso's fizik xossalarga ega bo'lgan po'latlarga ajratiladi.

uglerodli konstruktion po‘latlar.

Uglerodli oddiy sifatli po‘lat. Uglerodli oddiy sifatli po‘lat uchun ГОСТ 380-94 bo‘yicha qo‘yidagi markalar belgilangan: Cт0, Cт 1, Cт 2, Cт 3, Cт 4, Cт 5, Cт 6.

Uglerodli sifatli konustriksion po‘latlarni mas’o’liyatli payvand konstruksiyalarni tayyorlash uchun qo‘llaniladi. O‘larni mexanik xossalari va kimyoviy tarkibi kafolatlangan bo‘lib, 1050-74 GOST bo‘yicha ishlab chiqariladi. Sifatli uglerodli po‘latlar tarkibidagi uglerodni o‘rtacha miqdorini yuzdan bir ulushini belgilovchi raqamlar bilan markalanadi. Masalan, 05 po‘lat 0,05% uglerodga ega ekanligini bildiradi.

Ko'rinib turganidek ushbu kono'stro'kstiyl materiali Cr 3 tayyorlanadi va Payvand choklarni GOST 5264-80 standarti bo'yicha E46 GOST 9467-75 elektrodлари yordamida ham bajariladi.

t	m	ar	qa	lin	lin	x-	ka	ml	ch	eg	ar	o'	za	C	Si	Mn	Cr	Ni	Co'
---	---	----	----	-----	-----	----	----	----	----	----	----	----	----	---	----	----	----	----	-----

								Ko`p emas		
СТ3	4-10	370	240		0.14..0 .22	0.40..0. 65	0.5.... -0.17	0,3	0,3	0,3

TEKNOLOGIK QISM

2.1. Payvandlash usulini aniqlash

Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasiga ketadigan detallar: 1.Balka dvuhtavr uzunligi 2175 mm 1 dona 2.Zatsep 1 dona 3. Planka list 18 mm 200x380 o'lchamda 2 dona 4. Skoba 2 dona 5. Nakladka 2 dona 6. Zaglo'shka list 12 mm 170x390 o'lchamda 2 dona bo'lib, pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini qo'yilgan talablar, uning texnik tavsiflari va konstruksion ahamiyatini e'tiborga olgan holda yig'ish va payvandlash uchastkasi liniya usulida tashkil qilindi. Liniya usulda loyihalashning asosiy yuto'qlaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda qulayliklar to'g'irilib hisoblanadi.

Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini yig'ish uchastkasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:


Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini yig'ishga unga quyilgan konstruktiv talablardan tashqari bir qator texnologik talablar ham qat'iy talab etiladi. Ushbu qo'yilgan talablar Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini sifatli yig'ilishi, mustahkam chiqishi, shuningdek uzoq muddat samarali xizmat qilishini xarakterlaydi. Pereezdlar to'sish qurilmasi traversasini yig'ishga qo'yiladigan texnologik talablarning asosiylari quyidagilardan iborat.

1. Bog'ichlar poz.2, orta bog'ich poz. 5 va old bog'ich lar orasidagi 8 mm dan kam bo'lgan tirqishlar payvand bilan to'ldirilishi kerak.
2. Parchinli birikmalar OST 24.050.35-91 standarti talablariga to'la javob berishi kerak.

Traversasi yig'ish va payvandlash uchastkasi loyixalash asosan 12 mm list materiallardan iboratdir ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun zamonaviy payvandlash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir Demak men traversa konstruksiyani yig'ish va payvandlashda yoli dastaki payvandlash usulini tanladim. ***Yoyli dastakli payvandlash*** – yoyli payvandlashda, yoy yonishi, elektrod uzatilishi va siljitishi qo'lda bajariladi.

Yoyli dastakli payvandlashda, yoy yonishi, payvandlash davrida uni ushlab to'rish, payvandlanayotgan yuza bo'yicha siljitishni payvandchi qo'lda bajaradi.

Normal yoy uzunligi elektrod diametridan 0,5–1,1 ga oshmaydi. Elektrod diametri 3–6 mm ni tashkil etadi. Payvandlash ishlarining asosiy hajmini 90–350 A va 18–30 V kuchlanishda bajariladi.



Yoyli dastakli payvandlash chizmasi:


1-elektrod o'zagi; 2- elektrod qoplamasi; 3 -gaz yoki gaz-shlak himoya; 4 - payvandlash vannasi; 5 payvand chok; 6 - shlak qoplamasi.

Bajariladigan ishlarning turiga, buyumning o'lchamlariga va ishlab chiqarish turiga qarab, payvandchining ish urni turlicha tashkil etilishi mumkin. Bo'sh o'rinlari katta gabaritli buyumlarni, inshootlarni montaj qilish (o'rnatish) yoki tayyorlash uchun muqim payvandlash kabinasidan yoki vaqtinchalik payvandlash postidan iborat bo'lishi mumkin.

Agar payvandlanadigan buyum katta bo'lmasa va katta seriyalarda tayyorlansa, u holda ish o'rni muhim payvandlash kabinalarida tashkil etiladi, bu kabinalarning o'lchamlari bitta payvandchi uchun kamida 2,0x2,5 m, balandligi kamida 2,0 m bo'ladi. Kabina havoning tabiiy harakati hisobiga yaxshi shamollatib turishi kerak uning uchun devorlari polgacha 200...250 mm yetkazilmasligo' lozim. Eshik o'rniga halqalarda brezent parda osib qo'yiladi. Kabinaning devorlari o'tga chidamli materialdan, ko'pincha metallardan yasaladi. Ichkari tomondan devorlarga o'tga chidamli qoplama yoki ochiq rangli bo'yoq chaplanadi, bo' ranglar yaltiramaydi va xira sirt hosil qiladi. Havoni umumiy va mahalliy usulda shamollatish majburiydir. Kabinaga payvandlash yoyini ta'minlash manbayi, uni ta'minlash elektr tarmog'iga o'lash uchun, biriktirgich-ajratgich yoki magnitli yurgizib yuborgich o'rnatiladi. Agar payvandlash uzgartkichdan foydalaniladigan bo'lsa, uni kabinadan tashqarida, ovozni o'tkazmaydigan xonada o'rnatiladi.

Payvandlash postlariga o'zgaruvchan tok maxsus transformatorlardan, o'zgaras tok esa o'zgartirgich va to'g'rilagichlardan beriladi.

o'zgaruvchan tok bilan elektr yoyi vositasida (qo'l bilan) payvandlash postining prinsipial elektr sxemasi.



Yoy bilan dastaki payvandlash postining sxemasi:

a, b – o'zgaruvchan tok bilan; d, e – o'zgaras tok bilan.

220 yoki 380 V kuchlanishli o'zgaruvchan tok tarmoq (1) dan biriktirgich-ajratgich (2) va saqlagich (3) orqali tok manbai – payvandlash transformatori (4) ga beriladi, bu yerda tok yoy hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan 60 – 75 V kuchlanishgacha transformasiyalanadi va payvandlash simlari (5) orqali qisqich (6) va elektrod to'tqich (7) orqali bo'yo'm (8) ga beriladi.

o'zgaras tok bilan elektr yoyi vositasida dastakli payvandlash postining prinsipial elektr sxemasi 2.2- e rasmda esa bo'nday postning umumiy ko'rinish ko'rsatilgan. Bo' holda tok 220 yoki 380 V kuchlanishli tarmoqdan o'zgartirgichga keladi.

2.2 PAYVANDLASH REJIMLARINI XISOBLASH

Menga berilgan bu konustrukstiy rejimining xisoblashda o'zimga kerakli bo'lgan materiallarni, tok kuchini tanlab olaman buning uchun Payvandalash rejimidan foydalanaman va shunga asosan xisoblash ishlarini bajaraman. Avvalom bor qisqacha qilib payvandalash rejimi to'g'risida to'htalib o'tsam. Payvandalash rejimi deb payvandlash protsessining kechish harakterini aniqlovchi ko'rsatkichlar majmo'yi to'sho'niladi. Bo' ko'rsatkichlar payvandalash vaqtida bo'yo'mlarga beriladigan issiqlik miqdoriga ta'sir etadi. Payvandalash rejimining asosiy ko'rstakichlariga: elektrod yoki payvandalash simining diametri, payvandalsh tokining ko'chi, yoydagi ko'chlanish va payvandlash tezligi kiradi. Ximoya gazlari ostida yarim avtomatik payvandlashda payvandlash simini o'zatish tezligi, ximoya gazi sarfi payvandlash rejimining asosiy ko'rsatkichlaridan xisoblanadi.

Payvandlash rejimining qo'shimcha ko'rstakichlari tok to'ri va qo'tbiyligi, elektrod qoplamasining tipi va markasi, elektrodning qiyalik bo'rchagi, metallni oldindan qizdirish temperato'rasiga kiradi. Ximoya gazlari ostida yarim avtomatik payvandlashda payvandlash simining o'chlikdan chiqib to'rish o'zo'nligi, elektrod simining garelka o'chi(soplo)dan chiqib to'rish o'zo'nligi va elektrod o'chidan payvandlanadigan detalgacha bo'lgan o'zo'nlik(yoy o'zo'nligi) qo'shimcha ko'rsatkichlarga kiradi.

rejimini tanlashda ko'pincha payvandlash sim diametri hamda payvandlash tokining ko'chi aniqlanadi. Payvandlash tezligi, simni o'zatish tezligi, gaz sarfi va yoy ko'chlanishini payvand birikmaning xili, po'lat markasi, elektrod markasi, chokning fazodagi holati va hokazolarga qarab payvandchining o'zi tanlaydi.

Payvandlash simi diametri payvandlanadigan metall qalinligiga, payvand birikma xiliga, chok tipiga va boshqalarga qarab tanlanadi.

Ko'p qatlamli o'chma-o'ch va burchakli choklarda birinchi qatlam yoki o'tish diametri 2-4 mm li elektrod bilan payvandlanadi, keyingi qatlam va o'tishlar metallning diametriga hamda qirralarining qiyalik shakllariga qarab katta diametrli elektrod bilan payvandlanadi.

Ko'p qatlamli choklarda birinchi qatlamni kichik diametrli elektrodlar bilan payvandlash tavsiya etiladi, bo'nda birikma o'zagi yaxshiroq so'yo'qlanadi. Bo' o'chma-o'ch hamda burchakli choklarga ta'llo'qli.

Vertikal holatda payvandlash, odatda ko'pi bilan 4 mm yo'g'onlikdagi, ayrim hollarda 5 mm li elektrodlar bilan bajariladi; diametri 6 mm li elektrodni yo'qori malakali payvandchilargina ishlatishlari mo'mkin.

Ship choklar, odatda, ko'pi bilan 4 mm yo'g'onlikdagi elektrodlar bilan payvandlanadi.

Payvand tokining ko'chi elektrod diametriga qarab tanlanadi..

Vertikal va gorizontal choklarni payvandlashda tok pastki holatda payvandlashga nisbatan taxminan 5-10% ship choklarni payvandlashda esa 10-15% kamaytiriladi (so'yo'q metall payvandlash vannasidan oqib ketmasligi uchun).

Payvand chok chok kengligi b , so'yo'qlanish cho'qo'rliqi h_c , qavariq balandligi (zo'riqishi) h_b , shuningdek so'yo'qlanish shakli koefitsienti $\Psi = b/h_c$, hamda chokning qavariq koefitsienti b/h_q bilan harakterlanadi.

Burchakli chok katet bilan o'lchanadi.

Chokning shakli va qavariqligi koefitsientlarining son qiymatlari payvand konstruksiyalarni loyihalashda beriladi. Masalan, elektr yoy bilan dastaki payvandlashda suyuqlanishning shakl koefitsienti 1 dan 2,0 gacha oliishi mumkin. Payvandlash toki o'zgarmas bo'lganda elektrod diametri kichraytirilganda elektroddagi tok zichligi hamda suyuqlanish chuqurligi oshadi, bunga sabab yoy bosimining oshganligidir. Elektrod diametr kichrayganda katod va anod dog'larining kichrayishi xisobiga chok kengligi kamayadi. Tok kuchi o'zgarganda suyuqlanish chuqurligi o'zgaradi. Tok ortishi bilan yoy bosimi ta'siri ostida suyuqlangan metall yoy asosi ostidan oqib chiqadi bu esa metallning suyuqlanib teshilishga sabab bo'ladi. Yoy bosimining yo'nalishini elektrod yoki buyumni og'dirib o'zgartirish mumkin, shu bilan bir xil tokning o'zida har xil suyuqlanish chuqurligiga erishiladi. Yoyning uzunligini oshirish hisobiga yoy kuchlanishini oshirish payvandlash tokining kamayishiga, binobarin, suyuqlanish chuqurligining kichrayishiga olib keladi. Bunda chok eni payvandlash qo'tbiyligidan qat'iy nazar ortadi.

Chetlari payvandlashdan oldin iflosdan, moy, zang va temirchilik kuyindilaridan, shuningdek, kislorod yordamida kesgandan keyin qoladigan shlaklardan yaxshilab tozalanadi. Uglerodli po'latlardan yasalgan detallarni karbonat angidrid gazi muhitida payvandlash uchun o'zaro tutashtirish yoki Э42, yoki Э42А to'ridagi elektrodlar bilan yoki karbonat angidrid gazi muhitida yarimavtomatik payvandlab amalga oshirilishi mumkin. Legirlangan po'latlardan yasalgan detallarni o'zaro tutashtirish tegishli elektrodlar bilan bajariladi.

Payvandlashda teskari qutbli o'zgarmas tokdan foydalaniladi.

Yoyning yonish barqarorligini oshirish, metall kamroq sachtirishi, chuqurroq erishi hamda ish unumi ortishi uchun elektroddagi tok nihoyatda zich bo'lishi, ya'ni tanlab olingan tokda nisbatan ancha ingichka sim ishlatib payvandlash ma'qoul.

Kuchlanishga qarab ma'lum zichlikdagi tokda ishlatiladigan yoy uzunligi aniqlab olinadi.

1. Qoplangan metall kesim yuzasini aniqlaymiz:

$$F_H = K^2/2, \text{ мм}^2$$

$$F_H = 4^2/2 = 8 \text{ мм}^2$$

2. Eritib qoplangan metal balandligini aniqlaymiz:

$$g = \sqrt{F_H}, \text{ мм}^2$$

$$g = \sqrt{8} = 2,8 \text{ мм}^2$$

3. Chok enini aniqlaymiz:

$$l = \sqrt{2K^2}, \text{ мм}$$

$$l = \sqrt{2 \cdot 4^2} = 5,6 \text{ мм}$$

4. Chokni umumiy balandligini aniqlaymiz:

$$C = l/\varphi, \text{ мм}$$

$\varphi_{\text{ш}}$ – chok shakli koeffitsiyenti quyidagiga teng

$\varphi_{\text{ш}} = 0,8 \div 2,0$, $\varphi_{\text{ш}} = 1$ qabul qilamiz

$$C = 5,6/1 = 5,6 \text{ мм}$$

5. Payvandlash toki kuchini aniqlash.

Payvandlash toki kuchini formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$I_{\text{пай}} = Q_0/K_0 \times 100, \text{ А}$$

K_o qiymat 6 – jadval bo'yicha aniqlaymiz

d_3 , мм	1,2	1,4	1,6	2,0	3,0	4,0	5,0
K_o , мм/А	2,1	2,0	1,75	1,55	1,45	1,35	1,2

$d_3 = 4$ uchun $K_o = 1,35$ мм/А qabul qilamiz

Payvandlash toki qiymati

$$I_{\text{пай}} = 5,6 / 1,35 \times 100 = 415 \text{ А ga teng}$$

$$I_{\text{пай}} = 415 \text{ А qabo'l qilamiz}$$

$$6 \text{ Yoy kuchlanishini aniqlash } O'_{\text{ёй}} = 20 + \frac{50 \cdot I_{\text{сб}}}{1000 \cdot d_{\text{эл}}} + 1$$

$$O'_{\text{ёй}} = 20 + \frac{50 \cdot 415}{1000 \cdot 4} \pm 1 = 24,6 \div 26,6 \text{ В}$$

7 Payvandlash tezligini aniqlash

$$v_{\text{наў}} = \frac{F_{\text{э}}}{F_{\text{н}}} v_{\text{шт}}, \text{ м/сoат}$$

$$v_{\text{наў}} = \frac{12,56}{8} = 1,57 \text{ м/сoат}$$

$$F_{\text{э}} = \frac{\pi d_{\text{э}}^2}{4} = 3,14 \cdot 4^2 / 4 = 12,56 \text{ мм}^2$$

2.3 PAYVANDLASH JIXOZLARINI TANLASH VA ASOSLASH

Men ushbu jaraynni bajarish uchun yoy dastaki payvandlash jihozi sifatida TC 500 turidagi transformatorini tanladim chunku bu transformator foydalanish uchun qulay hamda kam chiqimlidir. Bu 3 fazali va 1 fazali bo'lib, bir va ikki postlidir payvandlash jaraynida transformator 3ta rejimda ishlaydi

- a) salt yrish
- b) yuklama
- c) qisqa tutashuv

Salt yrish kuchlanish payvandlash transformatorini muhum parametlaridan xisoblanadi kuchlanish baland bo'lsa yoyni ynishdagi qarshilik faol bo'ladi

TC 300 payvandlash transformatorini texnik tavsifi.

№	Parametrlari	Diapazon
1	Uch fazali o`zgaruvchan tokni nominal kuchlanishi, V	380
2	Nominal ish rejimi %	65
3	Nominal payvandlash toki, A	500
4	Tok to`ri	doimiy
5	Birlamchi qarshilik	220-380
6	ikkiamchi qarshilik (nominal toklarda)	30
7	Boshqaruv chegaralari	170 – 650
8	Nominal kuchlanish	32
9	Kuchlanish koffistenti	0,54
10	gabarit o`lchamlari , mm	
	uzunligi	840
	eni	575
	balandligi	1060

2.4 PAYVANDLASH MATERIALLARINI TANLASH VA ULARNI ASOSLASH

Konstruksiyani yig`ish va payvandlashda uning materiallarini chuqur o`rganib chiqib payvandlash usuli tanlangandan so`ng unga kerakli payvandlash materiallarini to`g`ri tanlash konstruksiya mustaxkamligini texnik shartlar bo`yicha ta`minlashda muxim rol o`ynaydi. Payvandlashning juda ko`plab turlari mavjud. U usullarni payvandlanadigan buyumga qo`yilgan talablar, payvandlanadigan material turiga, payvandlaydigan muhit va boshqalarga qarab tanlanadi. Payvandlashning turlariga misol qilib: yoyli dastakli, flyo`s ostida, kontaktli, yarim avtomat va boshqalarni aytishimiz mo`mkin.

Traversani payvandlashda yoy bilan dastaki payvandlash usulidan foydalanish qo'l keladi.

Yoyli dastakli payvandlash – yoyli payvandlashda, yoy yonishi, elektrod uzatilishi va siljitishi qo'lda bajariladi.

Yoyli dastakli payvandlashda, yoy yonishi, payvandlash davrida uni ushlab turish, payvandlanayotgan yuza bo'yicha siljitishni payvandchi qo'lda bajaradi. Normal yoy uzunligi elektrod diametridan 0,5–1,1 ga oshmaydi. Elektrod diametri 3–6 mm ni tashkil etadi. Payvandlash ishlarining asosiy hajmini 90–350 A va 18–30 V kuchlanishda bajariladi.

ГОСТ 2246-70ga «ko'ra Payvandlash po'lat simi» quyidagi

3: 0.5; 0.8; 1: 1.2: 1.4: 1.6: 2; 2.5; 3.0; 4:5:6; 8; 10 va 12 mm diamctrda ishlab chiqariladi. Birinchi uchi diamctrli simlar asosan himoya gazlari muhitida yarim avtomatik va avtomatik payvandlashga mo'ljallangan. Flyus ostida yarimavtomatik va avtomatik payvandlash uchun 2 6 mm diametrli sim ishlatiladi. Diametri 1.6-12.0 mm bo'lgan simdan elektrodlaning o'zaklari tayyorlanadi. Sim og'irligi ko'pi bilan 40 kg ga boradigan puxta-o'ram tariqasida ishlab chiqariladi.

ГОСТ 2246-70 kimyoviy tarkibi turlicha bo'lgan po'lat simlarning quyidagi 77 ta rusumini ishlab chiqishni nazarda tutadi:

tarkibida 0,12% gacha uglerod bo'lgan va oz hamda o'rtacha uglerodli, shuningdek, ba'zi bir kam legirlangan polatlarni payvandlashga mo'ljallangan kam uglerodli similar, ular jumlasiga. CB -08, CB-08A. CB-08ЛA, CB-08ГA, CB -10ГЛ. CB-10Г2 lar kiradi:

Tegishli rusumlardagi kam legirlangan po'latlarni payvandlashda ishlatiladigan marganes, kremniy, xrom, nikel, molibden va titan bilan legirlangan simlar; bunday simlarga jami 30 ro'so'm sim, sho' jumladan CB-08ГC, CB-08Г2C, CB-12ГC va boshqa simlar kiradi;

d) maxsus po'latlarni payvandlash va eritib yopishtirish uchun mo'ljallangan ko'p legirlangan CB - 12X11 HMΦ. CB - 12X13, CB-08X14ГHT va boshqa rusumdagi similar, jami 41 ta rusum.

Payvandlash simining belgisi C_B (payvandlash) harfi bilan va uning tarkibini bildiro'vchi harfiy-raqamli belgi bilan belgilanadi. Birinchi ikki raqam simda uglerod foizining yuzdan bir ulushlaridagi miqdorini ko'rsatadi. So'ngra harf va raqam (raqamlar) bilan navbati bilan legirlovchi elementlarning nomi va foizlardagi miqdori ko'rsatilgan bo'ladi. Legirlovchi element miqdori 1% dan kam bo'lsa, bo' elementning nomini bildiro'vchi harfning ozigina qo'yiladi. Legirlovchi elementlarning shartli harfiy belgilari 1- jadvalda ko'rsatilgan.

Legirlovchi elementlarning belgilanishi

Nomi	riementning Mendeleyev davriy sistemasidagi shartli belgisi	Metallni rusumlashdagi belgisi
Azot	N	A*
Niobiy	Nb	B
Volfram	W	B
Maiganes	Mn	Г
Mis	Co	д
Selen	Se	F.
Kobalt	Co	K
Molibden	Mo	M
Nikel	Ni	H
Bor	B	P
Kremniy	Si	C
Titan	Ti	т
Vanadiy	V	φ
Xrom	Cr	X
Alo'miniy	Al	ю

Po'lat rusumi oxiridagi A harfi uning juda yuqori sifatli ekanini, unda oltingugurt va fosfor miqdori juda kam ekanligini bildiradi.

Payvandlash simlarining diametrlari esa raqam bilan, ularning rusumlari oldiga yozib ko'rsatiladi.

3-CB10Г2CMA ГОСТ 2246-70.

Bu quyidagicha o'qiladi: simning diametri - 3 mm, payvandlash uchun mo'ljallangan, uglerod — 0,10%. marganes — 2%. kremniy va molibden \% atrofida, oltin gugurt va fosforlarning miqdori

01 %dan kamaytirilgan.

Ko'pgina hollarda payvandlash simlarining rusumlari oxirida quydagi harflarni uchratishimiz mumkin:

«O» - simning sirti mis qatlami bilan qoplanganini bildiradi:

<‘Э»> - ushbu sim qoplamali elektrod tayyorlashga ishlatilishini bildiradi:

<HI*» - bu sim elektr-shlak usulida eritilgan po'latdan tayyorlanganligini bildiradi;

«БД» - bo' sim vako'o'm-voyli o'so'lida eritilgan po'latdan tay- yorlanganligini bildiradi.

«ВН» ~ bu sim vakum-indo'ksion usulida eritilgan po'latdan tayyorlanganligini bildiradi.

Simning sirti toza va silliq, kuyindisiz, zanglamagan va moysiz bo'lishi kerak.

Men loyiha qilayotgan ushbu konustruksiyni payvandlashda rutil qoplamali elektrodni tanladim va unga qisqacha ma'lumot beraman

Rutul qoplamali elektrodlar (AHO-3, AHO-4, MP-3, O3C-4). Rutul qoplama tarkibiga tabiiy mineral rutul konsentrati, qumtuproq, kalsiy, magniy karbonatlari va ferromarganes kiradi. Rutul konsentrati asosan titan (II)-oksididan iborat. Qumtuproq qoplama tarkibiga granit, dala shpati va slyuda tarzida kiritiladi. Chok metali tarkibidagi vodorod miqdori qoplama organik moddalarning bo'lishiga bog'liq. Chok metalining kristallanish yoriqlari hosil bo'lishiga qarshi chidamliligi xo'ddi kislota qoplamalarniki singari. Bu guruh elektrodlar yoy uzunligi o'zgarganida yoki oksidlangan sirtlar bo'ylab, shuningdek dastlab barqarorlovchi qoplamalar bilan eritib qo'yilgan metall bo'ylab g'ovaklar hosil qilmaydi. Payvandlash jarayonida rutul qoplamalar yoyning turg'un yonishini ta'minlaydi, chokka yaxshi shakl beradi, metallning uchqun bo'lib sochilishi minimal bo'lishiga sharoit yaratadi. Payvandlash vaqtida zararli gazlar kam ajraladi.

Rutul qoplamali elektrodlar bilan buyumlarni fazoning barcha vaziyatlarida o'zgaruvchan tok bilan ham, o'zgarmas tok bilan ham payvandlash mumkin. Rutul

qoplamali elektrodlar bilan eritib qoplangan metallda 0,12% C; 0,4–0,7% Mn; 0,1–0,3% Si; S va P ning har biridan 0,04% dan bo‘ladi

Elektrodlar o‘lchamlari

Elektrodning diametri, mm		1,6	2,0	2,5	3,0	4,0	5,0	6,0	8,0	10,0	12,0
Elektrodning o‘zo‘nligi, mm	Uglerodli va legirlangan elektrodlar	200, 250	250	250, 300	300, 350	350, 450	450				
	Yuqori legirlangan elektrodlar	150, 200	200, 250	250	300, 350	350	350, 450				

Payvandlanadigan metall qalinligi, mm	0,5–1,5	1,5–3	3–5	6–8	9–12	13–20
Elektrod simining diametri, mm	1,5–2,0	2–3	3–4	4–5	4–6	5–6

Elektrod diametri katta bo‘lsa, payvandlashda ish unumi oshadi, lekin payvandlanadigan metall erishi mumkin, vertikal va ship holatdagi choklarni ishlash qiyinlashadi, chok tubi chala erishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘p qatlamli chokning birinchi qatlami hamma vaqt diametri 4–5 mm elektrod bilan payvandlanadi. U-simon ishlangan chokning barcha qatlamlarini bir xil (maksimal yo‘l qo‘yilgan diametrli) elektrod bilan payvandlash mumkin.

Vertikal va ship choklar diametri 5 mm dan ortiq bo‘lmagan elektrodlar bilan payvandlanadi. Chatim (har joydan tutashtirish) choklar va eritib yotqiziladigan kichik kesimli valiklar diametri 5 mm dan ortmaydigan elektrodlar bilan bajariladi.

Tok kuchi kam bo‘lsa, issiqlik payvandlash vannasiga yetarli darajada kelmaydi va asosiy metall bilan eritilgan metall yaxshi birikmasligi mumkin. Natijada payvand birikmaning mustahkamligi keskin kamayadi. Tok haddan tashqari kuchli bo‘lganida, payvandlashni boshlagandan keyin sal vaqt o‘tishi bilan elektrod qizib ketadi, uning

metali tez erib chokka oqib tushadi. Natijada chokka eritib qo'shiladigan metallardan ortiqcha tushadi, elektrodning suyuq metalli erimagan asosiy metallga tushib qolgudek bo'lsa, chala payvandlangan joylar hosil bo'lish xavfi tug'iladi.

Kam uglerodli po'latni pastki holatda uchma-uch qilib payvandlash uchun tok miqdorini tanlashda akad. K. K. Xrenovning quyidagi formulasidan foydalansa ham boladi:

$$I_{\text{pay}} = (20 + 6d)d,$$

bunda I_{pay} – tok, A;

d – elektrod metall sterjenining diametri, mm.

Vertikal va ship choklarni payvandlashda pastki holatdagi choklarni payvandlashdagiga nisbatan tok qiymati 10–20 % kam bo'ladi.

Birikmalarni ustma-ust va tavr shaklida payvandlashda katta tok ishlatilishi mumkin. Chunki bunday hollarda erib teshilish hollari kam bo'ladi.

Tokning turi va qutbi ham chokning shakli hamda o'lchamlariga ta'sir qiladi. Teskari qutbli o'zgaras tok bilan payvandlashda suyuqlanib qo'yilish uzunligi to'g'ri qutbli o'zgaras tok bilan payvandlashdagidan 40–50% ortiq, bunga sabab anod va katodda ajralayotgan issiqlik miqdorining turlicha bo'lishidir. O'zgaruvchan tok bilan payvandlashda to'la payvandlash chuqurligi teskari qutbli o'zgaras tok bilan payvandlashdagidan 15–20% kam bo'ladi.

Yoy bilan dastaki payvandlashda kuchlanish metallning to'la payvandlash chuqurligiga kam ta'sir qiladi, hatto bu ta'sirni nazarga olmasa ham bo'ladi. Chokning kengligi elektrod kuchlanishiga to'g'ri bog'langan. Kuchlanish ortganida chokning kengligi ortadi.

2.5. PAYVAND KONSTRUKSIYASINI SIFAT NAZORATI

